

INTERPOL - XALQARO JINOIY POLITSIYA TASHKILOTI

Majidov Akobir Abduqaxorovich*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2-o'quv kursi kursanti*
akobirmajidov02@gmail.com

Аннотация: В данной статье речь пойдет об Интерполе, который является второй крупнейшей международной межправительственной организацией после Организации Объединенных Наций по количеству государств-членов в мире, а также об истории возникновения и развития этой организации, ее нынешнем статусе и том, что в деятельности этой организации в будущем будут происходить изменения и обновления, отражены мысли и мнения автора о возможности этого, обсуждается положение Интерполя в мировом сообществе.

Ключевые слова: ООН, Интерпол, Генеральная Ассамблея, Генеральный секретариат, экстрадиция, Гегемония, глобализация

Annotation: This article is about Interpol, which is the second largest international intergovernmental organization after the United Nations in terms of the number of member states in the world, as well as the history of the emergence and development of this organization, its current status, and what changes and updates will occur in the activities of this organization in the future. the author's thoughts and opinions are reflected about the possibility of it. Interpol's position in the world community is discussed

Key words: United Nations, Interpol, General Assembly, General Secretariat, extradition, Hegemony, globalization

Annotatsiya: Ushbu maqola dunyoda a'zo davlatlar soni bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotidan keyin ikkinchi yirik xalqaro hukumatlararo tashkilot bo'lgan Interpol hamda ushbu tashkilotning paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, hozirgi holati hamda kelgusida bu tashkilot faoliyatida qanday o'zgarishlar, yangilanishlar bo'lishi mumkinligi haqida muallifning fikr va mulohazalari aks etgan. Interpolning jahon hamjamiatida qanday o'ringa ega ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Interpol, Bosh Assambleya, Bosh kotibiyat, ekstraditsiya, Gegemonlik, globallashuv

Dunyo hozirgi paytda shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Bugun aytayotgan fikrlarimiz ertangi kunga to'g'ri kelmay qolishi mumkinligi ham ehtimoldan holi emas. Ilgari ko'p uchraydigan "kichik-kichik turdag'i" jinoyatlar bilan bir qatorda murakkab turdag'i, keng qamrovli jinoyatlar sodir etilishi ham ancha ko'paydi. Butunjahon miqyosida xalqaro qidiruvda bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularni qidirib topish va ularga nisbatan qonuniy chora ko'rish masalasi dunyo davlatlari

huquqni muhofaza qiluvchi organlarining xalqaro miqyosdagi jinoiy politsiya tashkilotining tarkib topishi uchun turtki bo'ldi. Xuddi shunday tashkilot sifatida hozirgi paytda xalqaro miqyosda faoliyat olib borayotgan eng yirik tuzilma – "Interpol" sanaladi.

INTERPOL – xalqaro jinoiy politsiya tashkilotining barcha tillar uchun qisqartirilgan umumiy nomi. 1923-yilda Vena shahri (Avstriya)da ushbu tashkilotga asos solingan. Hozirgi nomi manzilni qisqa qilib ifodalash tarzida 1-marta 1947-yilda paydo bo'lgan.

1949-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti unga rasmiy ravishda xalqaro hukumatga qarashli bo'lмаган tashkilot maqomini berdi,

Interpolning amaldagi Ustavi 1956-yil 13-iyunda kuchga kirdi. Interpol jinoyatchilarni ro'yxatga olish xalqaro markazi sifatida ish ko'radi, shuningdek, jinoyatchilarni xalqaro miqyosda qidirish ishlarini muvofiqlashtiradi.

1998-yilda 185 ta davlat Interpolga a'zo hisoblangan edi. Hozirgi paytda esa bu davlatlar soni 194taga yetdi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham 1994-yilda Interpolga a'zo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarkibida Interpolning O'zbekiston Respublikasidagi Milliy Markaziy Byurosi tuzilgan.

Interpolning oliy organlari quyidagilar:

1. Bosh Assambleya;
2. Ijrochi Qo'mita;
3. Bosh Kotibiyat;

Bosh assambleyaning sessiyalari har yili chaqirib turiladi. Shuningdek, bu tashkilotda ijrochi qo'mita ham mavjud bo'lib, unga Interpol Prezidenti rahbarlik qiladi. Bundan tashqari, Bosh kotibiyat ham tashkilotning alohida bo'limi bo'lib, unga bosh kotib rahbar hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalarida ham Interpol muhim o'ringa ega bo'lib, bu tashkilot 1946-yildan "Xalqaro jinoiy politsiya umulashtiruvchi ma'lumoti" jurnalini nashr ettiradi.

Hozirgi paytda Interpol Prezidenti Ahmad Nosir al-Raisi hisoblanadi. Vitse-prezidentlar esa Sharka Gavrankova, Garba Baba Umar hamda Valdes Urkis hisoblanadilar.

Tashkilot Bosh kotibiyatiga germaniyalik Yurgen Shtok rahbarlik qiladi. Hozirgi kunda ushbu tashkilot faoliyatida 4 ta rasmiy til mavjud. Bular:

- ingliz tili
- fransuz tili
- ispan tili
- arab tili

Tashkilotning shtab-kvartirasi Fransiyaning Lion shahrida joylashgan. Interpol 1923-yilda tashkil topgan bo'lsa-da, Birinchi va Ikkinci jahon urushlari Interpolning shakllanishi va rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Interpolni qayta qurish faqat 1946-yilda uning shtab-kvartirasi Parijga ko'chirilishi bilan amalgalashdi. Amaldagi Nizom 1956-yilda qabul qilingan. Shuningdek, ushbu Nizom asosida tashkilotning yangi nomi – “Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti” – “Interpol” tasdiqlandi. Keyinchalik, 1989-yilda Interpolning shtab-kvartirasi ushbu shaharda Bosh kotiblikning o'ta zamonaviy majmuasi qurilishi bilan bir vaqtida Lianga ko'chirildi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi delegatsiyasining ham Interpol Bosh Assambleyasi bilan doimiy ravishda aloqada o'zoro ma'lumot almashinuv jaroyonida ishtiroki faol desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan,

Joriy yilning 18-21 noyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining birinchi o'rinnbosari, general-mayor D.Nazarmuxamedov boshchiligidagi delegatsiya Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan Interpol Bosh Assambleyasining 87-sessiyasida qatnashdi. Tadborda Interpolga a'zo davlatlardan tashrif buyurgan 1000 dan ortiq delegatlar hamda politsiya organlarining 85 nafar turli darajadagi rahbarlari ishtirok etdi. Unda Jinoyat qidiruv politsiyasining xalqaro tashkiloti (Interpol)ning Bosh kotibi Yurgen Shtok so'zga chiqib, turli tahdidlar va xavflar mavjud bo'lgan hozirgi paytda mazkur tashkilotning o'rni tobora ortib borayotganini aytib o'tdi. Shubhasiz, Bosh Assambleya sessiyasining kun tartibiga qo'yilgan asosiy masalalardan biri Interpol Ijroiya qo'mitasiga, Prezident lavozimiga saylovlarni o'tkazish bo'ldi. Ushbu lavozimga Koreya Respublikasi va Rossiya Federatsiyasidan nomzodlar ko'rsatilib, ovoz berish natijalariga ko'ra Koreya Respublikasi vakili Kim Chon Yan Interpol Ijroiya qo'mitasini Prezidenti etib saylandi. Bosh Assambleya ishtirokchilari kun tartibi loyihasini tasdiqlagach, tadbir o'z faoliyatini boshladi. Dastavval rejalashtirilgan jadvalga muvofiq, 18 noyabr kuni Assambleya doirasida delegatsiyamiz rahbari, general-mayor D.Nazarmuxamedov bilan Birlashgan Arab Amirliklari Ichki ishlar vaziri, shayx Saif bin Zayed Al Naxayan oliv hazratlari o'rtasida ikki tomonlama uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida Al Naxayan O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Arab Amirliklari uchun do'st va qardosh mamlakatlar ekanini alohida ta'kidlab o'tdi. Tadbir chog'ida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining birinchi o'rinnbosari, general-mayor D.Nazarmuxamedov respublika IIV tomonidan davlatlarimiz ichki ishlar organlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi IIV va Birlashgan Arab Amirliklari IIV o'rtasidagi hamjihatlik to'g'risidagi Memorandum loyihasi tayyorlanib, shayx Al Naxayan tomonidan ma'qullangandan so'ng, Birlashgan Arab Amirliklari IIV Protokol xizmati rahbari Said Al Nayimiga topshirilganini qayd etdi. Uchrashuv yakuniga ko'ra, tomonlar hamkorlik borasida bir qator kelishuvlarni qabul qilishdi. SHu kuni delegatsiyasi a'zolari Birlashgan Arab

Amirliklari IIV Bosh inspektori, general-mayor Ahmad Nosir al-Raisi bilan uchrashdi. Birlashgan Arab Amirliklari delegatsiyasi rahbari Interpol Ijroiya qo'mitasi saylovlarida uning nomzodini qo'llab-quvvatlagani uchun O'zbekiston IIVga minnatdorlik bildirdi hamda Interpol Ijroiya qo'mitasidagi faoliyati davomida O'zbekistonning barcha takliflari va kelgusidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashini bildirdi. O'z o'rniда, D.Nazarmuxamedov jinoyatchilikka qarshi kurashish va shaxslarni qidirishda mamlakatning ichki ishlar organlari tomonidan ko'rsatilayotgan ko'mak uchun tashakkur bildirdi. Ta'kidlash joizki, delegatsiyamiz a'zolari bir qator yaqin hamda uzoq xorij mamlakatlaridagi hamkasblari bilan uchrashib, o'zaro ishchan va samarali muzokaralar olib borishdi. Shuningdek, O'zbekiston delegatsiyasi tashabbusi va taklifi bilan Interpol Bosh kotibi Yurgen Shtok bilan ikki tomonlama uchrashuv tashkil etildi. Interpol Bosh kotibi davlatimiz delegatsiyasi a'zolarini Interpolning bir qator tadbirlarini, jumladan, seminar va treninglarni o'tkazishga oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlagani uchun minnatdorlik bildirdi. Suhbat davomida tomonlar Interpol oldida turgan dolzarb vazifalarni muhokama qilindi. Tadbir kun tartibiga ko'ra, delegatsiya rahbari Turkiya IIV delegatsiyasi rahbari Ichki ishlar vazirining o'rinnbosari Mexmet Ersoy bilan ham uchrashdi. Do'stona va o'zaro ishonch ruhida o'tgan suhbat jarayonida tomonlar terrorizm va ekstremizm, odam savdosi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda axborot almashinuvi, uyushgan jinoyatchilik va giyohvandlikka qarshi kurashish hamda qidiruv faoliyati sohasida tomonlarning o'zaro hamkorligi va uni takomillashtirish masalalarini muhokama qildilar. Assambleya doirasida rejaga ko'ra, D.Nazarmuxamedov Afg'oniston Islom Respublikasi Ichki ishlar vazirining xavfsizlik masalalari bo'yicha katta o'rinnbosari, general Axtar Moxammad Ibraximi bilan ham uchrashdi. Uchrashuvda O'zbekiston delegatsiyasi rahbari tomonidan keyingi yillarda o'zbek-afg'on hamkorlik munosabatlari sezilarli darajada o'zgargani qayd etildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha davlatlar bilan qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirishga, shu jumladan, Afg'onistonda tinchlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga ustuvor tashqi siyosiy masala sifatida qarashi bildirildi. O'zbekiston Respublikasi IIV delegatsiyasining Interpol Bosh Assambleyasining 87-sessiyasidagi ishtiroki yakuni, shuningdek, o'tkazilgan ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralar natijasiga ko'ra zarur tavsiyalar ishlab chiqildi va bir qator amaliy takliflar kiritildi.

Biz bilamizki, ko'plab mamlakatlarda jinoyatchilar "jinoy hodisa" sodir bo'lgandan so'ng tergov va suddan yashirinish shu bilan birga shu qilmishi uchun belgilangan jazoni o'tashdan bo'yin tov lash maqsadida dunyoning turli mamlakatlariga chiqib ketadilar. Qiziq tomoni shundaki, jinoyatchilarni qidirib topish, ushslash hamda uning tergovi bilan bog'liq masalalar, "**ekstraditsiya**" faoliyati bo'yicha dunyoning barcha mamlakatlari ham o'zaro bu borada hamkorlikni yo'lga

qo'yishmagan.Bunda xalqaro tashkilotning rolini kuchaytirish,a'zo davlatlar jinoyat hamda jinoyat-protsessual huquq normalarini hamkor davatlarning "qonun-qoida"lariga yaqinlashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki,bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlari orasida jahonga "Gegemonlik" qilish maqsadida olib borilayotgan siyosiy o'yinlar,ziddiyatli harakatlar turli qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmoqda.Bu esa davatlarning Xalqaro jinoiy politsiya tashkilotiga a'zo bo'lishiga, birgalikda jinoyatchilikka qarshi kurashishga xalaqit bermoqda.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish mumkinki,Interpol tashkilotining faoliyatini bugungi kun darajasiga keltirish, zamon bilan hamnafas qilish hozirgi vaqtida tashkilotning eng muhim vazifalaridan biri bo'lishi lozim hisoblanadi.Jahon hamjamiyatida Interpolning nufuzini oshirish,jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashish tashkilot oldida turgan dolzarb masalalalardan biridir.

Dunyo davlatlar o'rtasida vujudga kelayotgan ziddiyatlarning oldini olish,ularni yagona ezgu maqsad yo'lida birlashtirish asosida dunyo aholisi tinch-totuv hayot kechiradi. Insonlar o'z mulkining nobud bo'lishidan,shikastlanishidan xavfsiramaydi,hayoti va sog'lig'iga tashqi tajovuzlar bo'lishidan xavotirlanmaydi.Bir so'z bilan aytganda jamiyatda huquqiy tartibot o'rnatiladi.Shu jumladan,mustaqlil O'zbekiston Respublikasi ham fuqarolarning huquqlari,erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish,jinoyatlarning oldini olish,jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasida ko'pgina davlatlar,xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi,bu borada birgalikda faoliyat olib borishini zamonning o'zi talab qilmoqda.Yangi turdag'i jinoyatlarning paydo bo'lishi va ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sir etishi natijasida fuqarolarning huquqlari poymol qilinishiga olib keladi.Ushbu noxush holatlar vujudga kelishining oldini olish maqsadida "Interpol" tashkiloti dunyoning barcha mamlakatlarini o'z oldiga yagona maqsad yo'lida birlashtirishi va fuqarolarning munosib hayot kechirishini ta'minlashi jahonda ushbu tashkilotning nufuzini yanada oshirishi shubhasizdir.

Interpol chinakam haqiqatparvar,bir so'z bilan aytganda, ezgulikni,adolat tamoyillarini o'zining dasturulamaliga aylantirishi Yer yuzida insonlarning tinch-totuv,munosib hayot kechirishini ta'minlaydi desak, o'rinli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz (normativ hujjatlar bazasi)
2. www.google.com (butun jahon qidiruv tizimi)
3. ede.uz (milliy ta'lim internet portal)
4. <https://tergov.uz/> tergov sohasidagi siyosiy yangiliklar
5. "O'zbekistan Respublikasida interpolning milliy markaziy byurosini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Maxkamasining 29.11.1994 yil 574-son qarori
6. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)